

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali o'qituvchisi

E-mail: egamberdiyevbaxriddin65@gmail.com

Orcid id: <https://orcid.org/0009-0001-2272-7775>

Telefon raqam: +998949147996

**URF-ODAT, AN'ANA VA MAROSIMLARNING IJTIMOIIY-FALSAFIY
MOHIYATI VA QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI**

Annotatsiya

Ushbu maqolada urf-odatlar, an'analar va marosimlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda ularning qadriyatlar tizimidagi o'rni falsafa va sotsiologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Bu maqolada urf-odatlar va marosimlarni ijtimoiy institutlar sifatida ko'rib chiqilib, ularning jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar, madaniy va birlashtiruvchi vazifalarini ochib beradi. Maqolada E. Dyurkgeymning ijtimoiy birdamlik, Y. Assmannning madaniy xotira, E. Teylor va H. Bhabha, A. Giddensning zamonaviylik va globalizatsiya haqidagi nazariyalari, shuningdek, o'zbek olimlarining M. Payziyeva, Z. Rasulova, B. Sarimsakov, H. Shoniyozovni asarlari qo'llaniladi. An'analar va marosimlarning tarixiy davomiyligi, ularning avlodlararo qadriyatlarni uzatish mexanizmi sifatidagi roli va ularning qo'shnichilik va oilaviy hayotdagi amaliy namoyon bo'lishi misollar asosida yoritib berilgan. Maqolada globallashuv sharoitida qadriyatlarning o'zgarishi, mahalliy o'ziga xoslik va marosimlarning zamonaviy talqinini chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

Urf-odat, an'ana, marosim, qadriyatlar tizimi, madaniy xotira, ijtimoiy institut, globallashuv, mahalla, oila, ijtimoiy birdamlik, normativlik, madaniy meros.

Эгамбердиев Бахиддин Баходир оглу

Преподаватель Наманганского филиала Ташкентского международного

Кимё университета

E-mail: egamberdiyevbaxriddin65@gmail.com

ORCID id: <https://orcid.org/0009-0001-2272-7775>

Телефон: +998949147996

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ОБЫЧАЕВ,
ТРАДИЦИЙ И ОБРАЩЕНИЙ И ИХ МЕСТО В СИСТЕМЕ
ЦЕННОСТЕЙ**

Аннотация

В данной статье анализируется социально-философская сущность обычаев, традиций и обрядов и их место в системе ценностей с точки зрения философии и социологии. В статье обычаи и обряды рассматриваются как социальные институты и раскрываются их социальные нормы, культурные и объединяющие функции в обществе. В статье используются теории социальной солидарности Е. Дюркгейма, культурной памяти Й. Ассмана, современности и глобализации Е. Тейлора и Х. Бхабхи, А. Гидденса, а также работы узбекских ученых М. Пайзиевой, З. Расуловой, Б. Саримсакова, Х. Шониезова. На примерах иллюстрируется историческая преемственность традиций и ритуалов, их роль как механизма передачи межпоколенческих ценностей и их практическое проявление в соседской и семейной жизни. В статье глубоко анализирует изменение ценностей, местной идентичности и современную интерпретацию ритуалов в контексте глобализации.

Ключевые слова:

Обычаи, традиции, ритуалы, система ценностей, культурная память, социальные институты, глобализация, соседство, семья, социальная солидарность, нормативность, культурное наследие.

Egamberdiyev Bakhreddin Bakhodir oglu

Teacher of the Namangan branch of Tashkent International University of Kimyo

E-mail: egamberdiyevbaxriddin65@gmail.com

Orcid id: <https://orcid.org/0009-0001-2272-7775>

Phone number: +998949147996

SOCIAL-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF CUSTOMS, TRADITIONS AND CEREMONIES AND THEIR PLACE IN THE SYSTEM OF VALUES

Annotation

This article analyzes the socio-philosophical essence of customs, traditions and ceremonies and their place in the system of values from the perspective of philosophy and sociology. This article considers customs and ceremonies as social institutions and reveals their social norms, cultural and unifying functions in society. The article uses the theories of E. Durkheim on social solidarity, J. Assmann on cultural memory, E. Taylor and H. Bhabha, A. Giddens on modernity and globalization, as well as the works of Uzbek scientists M. Payziyeva, Z. Rasulova, B. Sarimsakov, H. Shoniyozov. The historical continuity of traditions and rituals, their role as a mechanism for transmitting intergenerational values, and their practical manifestation in neighborhood and family life are illustrated on the basis of examples. In the article deeply analyzes the change of values, local identity and modern interpretation of rituals in the context of globalization.

Keywords

Custom, tradition, ritual, value system, cultural memory, social institution, globalization, neighborhood, family, social solidarity, normativity, cultural heritage.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Urf-odatlar va marosimlar millatning madaniy merosi, jamiyatning me'yoriy va axloqiy asoslari hisoblanadi. Bunday tarixan shakllangan an'analar, urf-odatlar va marosimlar jamiyat hayotini tartibga soladi va odamlar hayotida chuqur ildiz otgan. Masalan, bir tahlilda "barcha xalq urf-odatlari, an'analari va marosimlari ma'lum bir tarixiy davr mahsulidir va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta'sirida paydo bo'ladi" deyilgan. O'zbek xalqining qadimiy merosi sifatida saqlanib qolgan an'analar va marosimlar bugungi kunda ham milliy o'ziga xoslikni saqlashda muhim ahamiyatga ega sanaladi. Ularni

o'rganish jamiyatning falsafiy va ijtimoiy farovonligini tushunish uchun zarurdir, chunki har bir an'ana bir xil tarixiy sharoitlarning mahsulidir, deb ta'kidlanadi.

Maqolaning obykti, predmeti, maqsadi va vazifasi. Maqolaning obykti sifatida urf-odatlar, an'analar va marosimlar hodisasi olingan. Maqolaning predmenti ularning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va jamiyatdagi qadriyatlardagi o'rni olingan. Maqolaning maqsadi urf-odatlar va marosimlar tushunchalarini aniqlash va ularning jamiyatdagi vazifalarini ochib berishdir. Maqolaning vazifasi an'analar va urf-odatlarning konseptual tahlili, ularning me'yoriyligi, uzluksizligi va ijtimoiy tartibni ta'minlashdagi roli, shuningdek, ularning mahalla va oiladagi amaliy ko'rinishlari misollar bilan ajratib ko'rsatilishi mumkin. Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda tarixiy va etnografik manbalar, shuningdek, mahalla va oila tadqiqotlari asosida yakuniy xulosalar chiqariladi.

Ilmiy yangiligi va ahamiyati. Maqolada an'analar va marosimlarni falsafiy va ijtimoiy talqin qilishda yangiliklarni kiritadi, ularni qadriyatlar tizimi bilan bog'laydi. Hozirgi globallashuv va modernizatsiya davrida asosiy e'tibor marosimlarning o'zgarishi va qadriyatlarning yangilanishi kabi muammolarga qaratilgan. Masalan, tarixiy vaziyatlarda yo'q bo'lib ketgan an'analarning barqarorligi va ularning yangi zamonaviy shakllari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, E. Dyurkgeymning ijtimoiy birdamlik nazariyasi ya'ni ijtimoiy me'yoriy bazani mustahkamlovchi marosimlar[3], Y. Assmannning madaniy xotira konsepsiyasi qadriyatlarni marosimlar orqali avlodlarga uzatish asosida tahliliy yondashuvlar qo'llaniladi[1]. Shuni ta'kidlash kerakki, marosimlar odamlarning axloqiy va estetik me'yorlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, ularda ishtirok etish shaxsning ma'naviy yuksalishiga olib keladi va jamoaviy birdamlikni mustahkamlaydi.

Maqola E. Dyurkgeymning ijtimoiy tamoyillar, Y. Assmann va M. Halbvaxs ning madaniy-jamoiy xotira, E. Teylorning ijtimoiy o'zgarish, H. Bhabha va E. Giddensning globallashuv va o'ziga xoslik kabi xorijiy olimlarning nazariy asarlaridagi qarashlar, shuningdek, o'zbek olimlari M.Payziyeva, Z.Rasulova, I.Jabborov, B.Sarimsoqov, X.Shoniyozov va boshqalarning milliy tadqiqotlariga asoslangan. Masalan, M. Payziyeva marosimlar milliy meros ekanligini va etnik

o'ziga xoslikni aks ettirishini ta'kidlaydi[9]. Z. Rasulova esa an'analar va urf-odatlarni tarixiy jarayonning mahsuli sifatida tahlil qiladi[10]. Ushbu manbalar tadqiqot uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi va an'analar va marosimlarning izchilligi, qonuniyligi va ijtimoiy vazifalari haqidagi xulosalarni boyitadi.

Metodologiya

Maqolada marosimlar va qadriyatlarni falsafa va sotsiologiya nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan. Falsafiy yondashuv masalani jamiyat va shaxs o'rtasidagi madaniy munosabatlar doirasida ko'rib chiqadi. Sotsiologik yondashuv marosimlarning ijtimoiy tuzilma, guruh dinamikasi va normalar sifatidagi rolini tahlil qiladi. Jamoa urf-odatlari va an'analari millat turmush tarzini aks ettiruvchi elementlar sifatida qaraladi. Shu maqsadda O'zbekistonda jamiyat va oilaviy tadqiqotlar, arxiv va hujjatli materiallar qo'llaniladi.

Maqolada tarixiy va etnografik usullardan foydalanilgan. Tarixiy usul marosimlar va an'analar qanday shakllanganligi va jamiyatda qanday o'zgarganligini aniqlaydi. Etnografik usul amaliy kuzatishlar va mahalliy tadqiqotlar (qo'shnichilik va oilaviy bayramlar, urf-odatlar) asosida ma'lumot to'plashni ta'minlaydi. Shuningdek, qiyosiy usul milliy marosimlarni boshqa xalqlarning marosimlari bilan taqqoslash uchun, tushuntirish usuli esa marosimlarning ichki mazmuni va vazifalarini ochib berish uchun qo'llaniladi. Turli mintaqalardagi marosimlar va urf-odatlarning mahalliy xususiyatlari qo'shnichilik tadqiqotlari orqali o'rganiladi. Ushbu yondashuvlar jamiyatning qadriyatlarga munosabatini har tomonlama tahlil qilishga xizmat qiladi.

Natijalar va ularning tahlili

Urf-odat va an'ana atamalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ijtimoiy hayotda sodir bo'ladigan takrorlanuvchi ijtimoiy me'yorlarga asoslangan hodisalarni ifodalaydi. An'ana jamiyatda qabul qilingan ko'nikmalar va qadriyatlarning ommaviy ifodasidir, urf-odat esa an'anani bajarish usuli, turmush tarzining bir elementi hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, an'ana "ajdodlardan avlodlarga ijtimoiy-tarixiy ehtiyoj sifatida meros bo'lib o'tadigan" hodisa bo'lib, jamiyat rivojiga xizmat qiladi[9]. Urf-odat - bu ma'lum bir ijtimoiy doirada oilada,

mahallada, odamlar darajasida shakllangan turmush tarzi bilan bog'liq an'anaviy shakl sanaladi. Marosim an'ananing rasmiy, rituallashtirilgan qismi bo'lib, ijtimoiy me'yorlarga asoslangan qadriyatlarni aks ettiradi.

Urf-odatlar va marosimlarning qadriyatlar tizimidagi roli ularning vazifalarida aks etadi. Ular ijtimoiy me'yorlarga asoslangan maqomga ega va jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy tartibni belgilaydi. Qoida sifatida marosimlar "ijtimoiy tartibni, axloqiy shakllarni va urf-odatlarni an'analar sifatida ifodalaydi". Shunday qilib, eski urf-odatlar qonun bo'lib xizmat qilgan va eskirgan urf-odatlarni qonunlarga kiritish tarixiy tajriba sifatida saqlanib qolgan. Marosimlar uzluksizlikni ta'minlaydi. Ular vaqt o'tishi bilan biroz o'zgarib tursa-da, ular asosiy g'oyalar va qadriyatlarni avloddan-avlodga etkazadi. Masalan, Z. Rasulova marosimlar "vaqt o'tishi bilan tobora kuchayib, ajdodlardan avlodlarga o'tib borishini" ta'kidlaydi[10]. Bundan tashqari, marosimlar ijtimoiy birdamlikni, estetik va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ular ishtirokchilarni umumiy ruhda birlashtiradi va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi.

O'zbek jamiyatida urf-odatlar va marosimlar oilaviy va jamoat hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, "beshik to'yi" marosimi chaqaloqning birinchi beshigi bilan bog'liq bo'lib, bu an'ana oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xuddi shunday, nikoh va fotiha to'ylari, oilani shakllantirish marosimlari oiladagi ijtimoiy aloqalar va qadriyatlarni ifodalaydi. Jamiyatda Navro'z va Qor bo'yra kabi bayramlar jamoaviy birdamlik va etnik o'ziga xoslikni namoyish etadi[9]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, motam marosimlari ham urf-odatlar tarkibida alohida o'rin tutadi, ular milliy xotira va mentalitet elementlari hisoblanadi. Umuman olganda, jamiyatning harakati va rivojlanishi yangi an'analarni shakllantirsa-da, eski urf-odatlar xalq hayotida o'ziga xos "xazina" ya'ni xalq donoligi va ijodining manbai bo'lib qolmoqda.

Globallashuv va zamonaviylashuv sharoitida urf-odatlar va marosimlar ham o'zgarmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vaqt o'tishi bilan ba'zi eski urf-odatlar o'z talabini yo'qotadi va ularning o'rnini yangilari egallaydi. Masalan, Sovet davri

taqiqlari tufayli qadimiy bayramlar tizimi buzilgan bo'lsa-da, mustaqillikdan keyin madaniy xotira tiklandi. Shu bilan birga, yoshlar orasida xalq an'analarini tiklash zarurati ortib bormoqda, chunki "millat kelajagi bo'lgan yoshlar ajdodlari tomonidan yaratilgan urf-odatlarini o'rganishlari va bilishlari kerak" degan fikr ilgari surilgan. Global madaniyat ta'sirida mahalliy urf-odatlarda o'ziga xos uyg'unlashuv yuz bermoqda, natijada ba'zi an'analar va marosimlar yangicha talqin qilinmoqda.

Dyurkgeym nazariyasiga ko'ra, marosimlar ijtimoiy birlikni mustahkamlash vositasidir[3]. Uning so'zlariga ko'ra, umumiy marosim tajribasi odamlarni birlashtiradi va ijtimoiy me'yorlarga asoslangan ongni mustahkamlaydi. Ushbu maqolada marosimlar turli ijtimoiy guruhlarda umumiy qadriyatlarni shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, Y. Assmannning madaniy xotira konsepsiyasi doirasida marosimlar o'tgan avlodlarning tajribasi va qadriyatlarini hozirgi zamonga etkazish mexanizmi sifatida qaraladi[1]. An'anaviy qonunlar va e'tiqodlar keyingi avlod ongida saqlanib qoladi va jamiyat hayotini boshqarishning muhim vositasiga aylanadi.

Postkolonial nuqtai nazardan, mahallalar va jamoalardagi an'analar mahalliy o'ziga xoslikni ifodalaydi, ammo global ta'sirlar bilan ular yangi ma'no va shaklga ega bo'ladi. E. Giddensning zamonaviylik nazariyasi tez ijtimoiy o'zgarishlar davrida an'analarni qayta baholashga urg'u beradi[4]. Mamlakatimizdagi tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalliy va global qadriyatlarga sezgir yondashuv an'analarni zamonaviy muhitga moslashtirish va ularni jamiyatda davom ettirish uchun muhimdir.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, urf-odatlar, an'analar va marosimlar jamiyatda uzluksiz axloqiy va ijtimoiy tajriba hisoblanadi. Ular "inson faoliyatining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi va eng yaxshi tajribalarni avlodlarga etkazishga yordam beradi". Shuningdek, A. Fitratning so'zlariga asoslanib, urf-odatlar xalqning ilg'or an'analari, donoligi va ijodiy makonidir, deyish mumkin[13]. Bugungi globallashtirilgan davrda ham urf-odatlarning mazmuni o'zgarib borayotgan

bir paytda, ular milliy o'ziga xoslikni saqlashning asosiy kafolatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

An'analar va urf-odatlarini saqlab qolish va rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar taklif qilinmoqda. Ta'lim tizimida mahalliy marosimlar va qadriyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratish zarur. Masalan, urf-odatlar tarixi va ularning jamiyatdagi roli bo'yicha maktablar va oliy ta'lim muassasalarida maxsus kurslar tashkil etilishi mumkin, chunki marosimlarda aks ettirilgan axloqiy qadriyatlar "yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi". Madaniy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish va milliy bayramlar va urf-odatlarini targ'ib qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, mahallalar va jamoat tashkilotlari urf-odatlar va marosimlarni saqlab qolish, yoshlarni an'anaviy faoliyatga jalb qilish bo'yicha amaliy choralar ko'rishlari kerak. Bunday amaliy choralar ta'lim, madaniyat va jamiyat barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Assmann, Jan. Das kulturelle Gedächtnis: Schrift, Erinnerung und politische Identität in frühen Hochkulturen. München: Beck, 1992.. P. 100-160.
2. Bhabha, H. The Location of Culture. London: Routledge, 1994.
3. Durkheim, E. The Elementary Forms of Religious Life. New York: Free Press, 1995. P. 49-127.
4. Giddens, A. The Consequences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990. P. 66-70.
5. Halbwachs, M. On Collective Memory. Chicago: University of Chicago Press, 1992.
6. Baxodir o'g'li, E. B. (2025, December). O'zbek xalqining an'anaviy marosim va urf-odatlarining tarixiy asoslari va rivojlanish falsafiy tahlili (qadimgi davr, islom davri misolida). In Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus (Vol. 1, No. 1, pp. 20-24).
7. Jabborov, I. O'zbeklar: tarixi va madaniyati. Toshkent: Fan, 2000.

8. Paiziyeva, M. O'zbeklarning an'anaviy va zamonaviy motam marosimlari. Toshkent: O'zRFA, 2015. B. 25-27.
9. Qoraboyev, U. O'zbek xalqining marosim va urf-odatlari. Toshkent: Ma'naviyat, 2006. B. 55-57
10. Rasulova, Z. O'zbeklarning nikoh to'yigacha bo'lgan marosimlari. Toshkent: O'zRFA, 2018. B. 104-120.
11. Sarimsoqov, B. O'zbek marosim folklori. Toshkent: Fan, 2009. B. 200.
12. Taylor, E. Primitive Culture. London: John Murray, 1871.
13. Fitrat, A. Milliy ruh. Toshkent: Ma'naviyat, 1993. B. 22-24.